



THE PROBLEM OF SYNTHESIS OF REGIONAL URBAN PLANNING AND EARLY STATEHOOD TRADITIONS IN THE FERGANA VALLEY

Ikromjon Tursunovich Yuldashev

Senior Lecturer at the Department of History of Kokand State University

Candidate of Historical Sciences

Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Urban planning culture, urbanization, social processes, development, early statehood, internal and external relations, irrigation system.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article provides a systematic analysis of the formation of regional urban planning and early statehood traditions in the Fergana Valley, examining their development processes within socio-economic and political contexts, as well as their historical significance.

FARG‘ONA VODIYSIDA MINTAQAVIY SHAHARSOZLIK VA ILK DAVLATCHILIK AN‘ANALARI SINTEZI MASALASI

Ikromjon Tursunovich Yo‘ldashev

Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.n.

Qo‘qon davlat universiteti

Qo‘qon, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Shaharsozlik madaniyati, urbanizatsiya, ijtimoiy jarayonlar, taraqqiyot, ilk davlatchilik, ichki va tashqi munosabatlar, sug‘orish tizimi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida mintaqaviy shaharsozlik va ilk davlatchilik an‘analarining shakllanishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kontekstda rivojlanish jarayonlari hamda tarixiy ahamiyati tizimli ravishda tahlil qilinadi.

ПРОБЛЕМА СИНТЕЗА РЕГИОНАЛЬНОГО ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА И ТРАДИЦИЙ РАННЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Икромджон Турсунович Юлдашев

Старший преподаватель кафедры истории

*Кокандского государственного университета, кандидат исторических наук
Коканд, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Культура градостроительства, урбанизация, социальные процессы, развитие, раннее образование, внутренние и внешние отношения, система орошения.</p>	<p>Аннотация: В данной статье проводится системный анализ формирования регионального градостроительства и традиций раннего государственности в Ферганской долине, рассматриваются процессы их развития в социально-экономическом и политическом контексте, а также их историческая значимость.</p>
--	---

Kirish. Qadimgi Farg‘ona shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi hamda Farg‘ona davlatchiligi tarixining ayrim masalalari hozirgacha ma’lum darajada tadqiq etilgan. Shu bilan birga, Farg‘onaning O‘rta Osiyoning qadimgi shaharsozlik tarixi va madaniy aloqalar tizimidagi o‘rni va ahamiyatining turli jihatlarini hali yetarlicha o‘rganilmagan va tizimli tarzda ilmiy umumlashtirishga muhtoj.

Natijalar va muhokama. Ma’lumki, Xorazm, Choch va Farg‘onada dehqonchilik madaniyati, O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlariga nisbatan ancha kech vujudga kelgan. Janubda ilk davlatchilik va urbanizatsiya jarayonlari ko‘p asrlar davomida ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarning rivojlanishi asosida bronza davrida boshlangan. Shu tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari tufayli, Farg‘onada ham dehqonchilik madaniyati yoyilishi bilan birdaniga ilk davlatchilik va shaharsozlik tarixi boshlanmagan deb xulosa chiqarish mumkin. Fikrimizcha, ushbu masalaning yechimida ilmiy adabiyotlarda an’anaviy yondashuvlar mavjud.

A.Anorboyevning yozishicha, mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida Farg‘onada dehqonchilik yo‘lga qo‘yilishi oziq-ovqat mahsulotni ko‘payishiga va ba’zi oilalarda qo‘shimcha mahsulotni orttirishga olib keladi. “O‘zaro kelishmovchiliklar va urushlar natijasida asirlar qo‘lga olinadi, - yozadi olim. – Ular qo‘shimcha mahsulotlar ko‘proq to‘plangan oilalarda majburiy ishga tortiladi. Sinfy tabaqalanish kuchayadi. Natijada, daryo va soy havzalardagi dehqonchilik vohalarida dehqon qarorgohlari, so‘ngra ilk shaharlar va ilk davlatlar (“nom”) paydo bo‘ladi”[1]. Demak, A.Anorboyevning fikriga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida davlatchilik va shaharsozlik sinfiy tabaqalanish asosida paydo bo‘lgan.

Bunday yondashuv S.Qudratovning maqolasida ham kuzatiladi, jumladan, davlatchilik shakllanishining asosiy sabablari – bu qo‘shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo‘lishi, jamiyatda ijtimoiy va mulkiy tengsizlikning yuzaga kelishi, ijtimoiy-mulkiy tengsizlikning chuqurlashuvi, ijtimoiy sinflarning paydo bo‘lishi, jamiyatda qarama-qarshilik va nizolarning vujudga kelishi, deb izoh topgan. Natijada, “jamiyatning yuqori toifa kishilari o‘z imtiyozlari va

boylıklarini jamiyatning oddiy a'zolari tahdididan himoyalashga zarurat sezadi." Shunday qilib, davlatlar paydo bo'ladi[2]. Jamiyatda qarama-qarshi sinflarning paydo bo'lishi natijasida davlatchilikning vujudga kelishi to'g'risidagi nazariya XX asr tarixshunosligida keng qo'llanilgan. (Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarida ham, chunki davlatchilik masalasini o'rganishda o'sha paytda yangicha konseptual yondashuvlar ishlab chiqilmagan edi).

Boshqa tadqiqotlarda ta'kidlashicha, davlat bir qancha omillarning (geografik, iqtisodiy, ekologik, diniy, harbiy) ta'siri ostida paydo bo'lib, ushbu omillarning ro'yxati mutlaqo iqtisodiy omillar bilan cheklanib qolmagan[3]. Davlatchilikning shakllanishida jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatidan bo'linishi, ishlab chiqarishni tashkil etish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniş zarurati, jamoalardagi o'zaro aloqalarni tartibga solish va muvofiqlashtirish, jamoalarning ichki va tashqi munosabatlarini nazorat qilish va boshqarib turish kabi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lgan[4]. Yangi nashrlarda keltirilgan ushbu xulosalarga to'liq qo'shilish mumkin, Farg'onada ilk davlatchilik tarixini o'rganishda "sinfiy" nazariya bilan cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas. Mazkur masalani yechimida turli yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega[5].

O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari bronza davri shaharlarining o'rganilishi natijasida, ularning me'moriy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy belgilari va funksiyalari ochib berilgan[6]. Ilmiy-uslubiy jihatdan shahar va davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi masalasini umumiy muammo sifatida o'rganish lozim, degan fikrga qo'shilish mumkin.

Farg'ona vodiysida ilk davlatchilik masalalari keyingi yillarda o'rganila boshlandi. Buning asosiy sababi dastlabki davlatchilikni paydo bo'lishidagi asosiy omillardan biri bo'lgan shaharlarning vodiya shakllanishi masalasi uzoq vaqt tortishuvlarga sabab bo'ldi. Faqat keyingi 10-15 yil ichida Farg'onada ilk shaharsozlik muammolari kun tartibiga qo'yildi. Dalvarzin vodiydagi eng qadimgi shahar deb tan olindi. Bu holat o'z navbatida Farg'ona vodiysida ilk davlatchilik qay shaklda bo'lgan, degan savolni ro'yobga chiqarib, bahsli muammoga aylandi.

B.Matboboyevning yozishicha, mil.avv. VIII-VII asrlarda Farg'onada "voha davlatchiligi" mavjud bo'lgan, bunday vohalar vodiyning 15 ta tumanida o'rganilgan[7]. A.Anorboyev, ushbu xulosaga o'z munosabatini bildirib, Farg'onada 15 ta voha davlati to'g'risidagi nazariya ilmiy nuqtai nazaridan hech qanday asosga ega emas, ya'ni noto'g'ri, deb xulosa chiqargan[8]. A.Anorboyevning fikriga ko'ra, mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi o'rtalarida "boshlang'ich davlatchalar" yoki davlat tipidagi siyosiy uyushmalar vujudga kelib, mil. avv. I ming yillikning boshlarida "boshlang'ich davlatchalar" asosida Farg'onada ilk davlat uyushmasi paydo bo'lgan[9]. Ammo, "boshlang'ich davlat" va "ilk davlat uyushmasi" tushunchalariga izohlar berilmagan.

Fargʻonada ilk shaharsozlik va dastlabki davlatchilik shakllariga oʻtishdagi jarayonlarni va mavjud omillarini uzoq hududlar bilan solishtirib boʻlmaydi. Masalan, Mesopotamiyadagi shaharsozlik va davlatchilikning yuzaga kelish omillari oʻz xususiyatlariga ega va ular rivojlanishning yuqori nuqtalarida edi deb qaraladi[10]. Lekin turli jamiyatlarda shaharsozlik va davlatchilik maʼlum bir ijtimoiy-iqtisodiy, etnogenetik, madaniy va boshqa omillar taʼsirida u yoki bu holatda namoyon boʻlgan[11]. Bularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ishlab chiqaruvchi kuchlar, xoʻjalik turlari, sugʻorish tizimi, hunarmandchilik sohalari).

Etnomadaniy va siyosiy omillar (etnik jarayonlar, siyosiy munosabatlar, madaniy jarayonlar).

Savdo-iqtisodiy, oʻzaro qoʻshnichilik aloqalari (tashqi aloqalar koʻlami, uzoq va yaqin qoʻshnilar bilan munosabatlar hamda ulardan boʻladigan xavf-xatar).

Maʼlumki, hozirda Fargʻona vodiysida bronza davri soʻnggi bosqichiga oid yodgorliklar toʻla aniqlangan. Yuqorida aytilganidek, qadimgi aholi oʻz makonlarining suv manbalariga va ular boʻyidagi yerlarning oʻzlashtirilishiga qarab joylashganlar. Ular toʻp-toʻp boʻlib yashab (orasidagi masofa 20-30 km.), mayda dehqonchilik vohalarni yoki yodgorliklar guruhini tashkil etganlar.

Har bir vohada bir necha mayda va bittadan oʻrtacha kattalikdagi aholi punktlari aniqlangan. Oʻrtacha kattalikdagi yodgorliklar silsilasiga yuqorida tilga olingan Chust, Dehqon, Xoʻjambogʻ kabilar kirib, ular dehqonchilik vohalarining iqtisodiy, madaniy va hunarmandchilik markazlari boʻlgan. Olimlar bu vohalarda kelib chiqishi jihatidan qarindoshligi bor oilalardan iborat aholi guruhlari yashagan deb hisoblaydilar. Ular bronza davri ziroatchi jamoalarini tashkil etganlar hamda ularning birlashuvidan dehqonchilik markazlari vujudga kelgan[12].

Soʻnggi bronza davri yoki Chust madaniyatining vodiy qadimgi tarixi uchun oʻziga xos ahamiyati bor. Birinchidan, ilk shaharlar shakllanib olgan tarixiy vaqt vodiya shu sanalarga toʻgʻri keladi. Ikkinchidan, bu davrda Oʻrta Osiyoda ilk davlatlar rivojlangan. Ammo Oʻrta Osiyoda mil. avv. VIII-VII asrlarda shahar maqomini oladigan katta yodgorliklar soni hozirda arxeologik jihatdan unchalik koʻp qayd etilmagan.

Margʻiyonadagi Yoztepada ark bor, biroq mudofaa devorlari aniqlangani yoʻq. B.X.Matboboyevning fikriga koʻra, Yerqoʻrgʻon, Koʻktepa, Qiziltepa mil. avv. VIII-VII asrlarda mudofaa devorlari bilan oʻrab olinmagan boʻlib, yodgorliklarda ushbu davr madaniy qatlamlari qoldiqlari aniqlangan xolos. Aynan katta maydon, murakkab mudofaa devorlari va tarkibiy qismlarga boʻlinishi shaharning zarur va birlamchi belgilaridan hisoblanadi. Bu belgilar Fargʻona ilk temir davri yodgorliklarida yaqqol koʻrinadi. Bu madaniyat katta yodgorliklari boʻlmish Dalvarzin, Ashqaltepa, Dehqon kabilar shaharsozlik ilk bosqichlarini aniqlash uchun muhimdir.

Aynan Dalvarzin va Chust atrofi mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan va alohida ark ajralib turardi.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, Farg‘onadagi so‘nggi bronza va ilk temir davriga oid dalillarni O‘rta Osiyo tarixi doirasidagi universal holat sifatida talqin qilish bahslidir. Marg‘iyona va Baqtriya hududlarida bronza davriga oid saroy va ibodatxonalar qoldiqlari topib tekshirilgan (Togolok, Gonur, Dashtli, Jarqo‘ton). Ushbu shakldagi me‘morchilik yodgorliklar Farg‘onada topilmagan. Mil.avv. VII asrga kelib, Marg‘iyona, Baqtriya va So‘g‘d hududlarida Yerqal‘a, Oltindilyor, Qiziltepa, Yerqo‘rg‘on, Ko‘ktepa kabi shaharlar mustahkam mudofaa devorlar bilan o‘ralgan. Shaharlarning o‘rta yoki burchak qismlarida hokimlar qarorgohlari – arklar joylashgan. Ular hom g‘ishtdan terilgan baland poydevor-platformalarga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham yuqorida keltirilgan B.X.Matboboyevning fikriga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Markaziy Osiyoning janubiy viloyatlaridan farqli ravishda Chust madaniyatining uy-joylari yerto‘lalardan ham iborat bo‘lgan. Janubda uy-joylar asosan paxsa va hom g‘ishtdan qurilgan. Shundan kelib chiqib, Farg‘onada shaharsozlik madaniyati, qurilish texnikasi va me‘morchilik o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Vodiyda ilk temir davriga oid mudofaa burjlari va o‘q otish uchun devorlarda va burjlarda o‘rnatilgan shinaklar hanuzgacha topilmagan, aksincha, mintaqaning janubiy viloyatlari shaharlarining mudofaa tizimida ular mavjud bo‘lib, ushbu tizimning tuzilishi, harbiy imkoniyatlari jihatdan ancha rivoj topgani to‘g‘risida dalolat beradi.

B.X.Matboboyevning fikrlariga (Farg‘onadagi mudofaa tizimi va arklarning mintaqadagi boshqa tarixiy-madaniy viloyatlarning aholi punktlariga nisbatan qadimiyligi) Yu.A.Zadneprovskiyning “Chust madaniyati birligi” to‘g‘risidagi nazariyasi ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Ushbu nazariyaga ko‘ra, mil. avv. I ming yillikning boshlarida Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘d, Choch va Farg‘ona “umumiy madaniy va balki etnomadaniy birlikni” tashkil qilib, janubiy yodgorliklarga nisbatan Chust madaniyati kamida 200 yil qadimiyroq bo‘lgan. Bu masala A.S.Sagdullayevning maqolasida maxsus tahlil qilingan. Tadqiqotchi qadimgi Farg‘ona va Baqtriyaning moddiy manbalari – sopol idishlar, bronza va temirdan ishlangan qurollar, yarog‘-aslahalar, me‘morchilik va binokorlik an‘analarini solishtirib, quyidagicha xulosalar chiqargan:

- qiyoslangan Farg‘ona va Baqtriya arxeologik topilmalarining sanasi asosan mil. avv. VIII-VII va VII-V asrlarga to‘g‘ri keladi;

- Farg‘onaning mudofaa tizimi va ark-qo‘rg‘onlari, Baqtriyadagi mudofaa va ark inshootlariga nisbatan qadimgi emas va mil. avv. VIII-VII asrlar bilan sanalishi mumkin;

- Farg‘onada ilk temir davri janubiy viloyatlarga nisbatan tarixiy jarayon sifatida oldin boshlanmagan. Ammo bunday yondashuv Yu.A.Zadneprovskiy va B.X.Matboboyevlar tomonidan rad etildi. G.P.Ivanovning fikriga ko‘ra, A.S.Sagdullayev Chust madaniyatining so‘nggi bosqich sanasini isbotlab bergan.

Yuqorida keltirilgan dalillar, Farg‘ona vodiysida ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi tarixi mavzusi bo‘yicha bahs-munozaralarning mavjudligidan dalolat beradi. Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya hududlarida dehqonchilikning vujudga kelishi, urbanizatsiya va davlatchilik jarayonlarning rivojlanishi Farg‘ona vodiysiga nisbatan-qadimgi voqea degan xulosani inkor qilib bo‘lmaydi. Shu bilan birga Farg‘onadagi shaharsozlik madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Dalvarzinning kattaligi, murakkab tuzilgani, tarkibiy qismlarga bo‘lingani, mukammal mudofaa devorlari bilan himoyalangani va arkka alohida e‘tibor qaratilgani, hunarmandchilik va mahsulot ayirboshlash, savdo-ayirboshlash markazi bo‘lgani bilan alohida ajralib turadi. Hunarmandchilik bir necha sohalarga bo‘lingan edi. Xususan, kulolchilik, to‘qimachilik, toshqonchilik, zargarlik, suyakka ishlov berish, sohalarning daliliy ashyolari topilgan.

Vodiyda bu davrda hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqqan bo‘lishi mumkin. Chunki o‘sha davr jamiyatining iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatuvchi muhim bir belgi — hunarmandchilikning kulolchilik sohasi rivojlangan edi. To‘g‘ri, kulolchilik charxi hali bu joy aholisi uchun noma‘lum bo‘lgan. Lekin sopol idishlar shakllari standarti va ular ichida alohida maxsus shakllarning bo‘lishi hamda ularning ko‘plab miqdorda ishlab chiqarilganligi mahalliy kulolchilikni ixtisoslashgan darajada deb hisoblashga imkon beradi. Bu jarayonni metallurgiya va to‘qimachilik sohaslarida ham kuzatish mumkin.

Bronzani eritish va undan mehnat va jangovar qurollar quyish chustliklarda ishlab chiqarilgan edi. Kerakli buyumlarni quyish uchun mo‘ljallangan va qumtoshdan yasalgan qoliplarning topilishi metallsozlarning mahsulotlarini ko‘plab ishlab chiqarishga mo‘ljallanganini isbot etadi. Chunki tabiiy ravishda toshdan yasalgan qolip, mahsulotni ko‘p nusxada ishlab chiqarish uchun tayyorlanadi. To‘qimachilik to‘g‘risida daliliy ma‘lumotlar yo‘q. Ammo uning mavjudligi va rivoji haqida yondosh ashyoviy dalillar topilgan. Bular kulolchilikda idishlar shaklini olishda ishlatilgan mato izlari asosida aniqlangan gazmol turlaridir. Ular, mutaxassislar fikricha, kamida uch xil va ularni to‘qishda o‘simlik hamda hayvon jini tolalaridan foydalanilgan. Sanab o‘tilgan belgilar fanda shahar hosil etuvchi belgilar deb hisoblanadi. Bu holat Dalvarzinni shahar maqomidagi yodgorlik deb atash uchun yetarlidir.

Bu davr boshqa yodgorliklari, chunonchi, Ashqoltepa, Chust, Dehqontepa, Xo‘jambog‘ kabilarni shahar tipidagi yoki shaharmonand maqomga ega edi deb hisoblash mumkin. Bulardan ikki yodgorlikda (Dalvarzin, Chust) alohida arkning paydo bo‘lishi, katta ishchi kuchi va mablag‘ sarflangan mudofaa devorlarining qurilishiga e‘tibor berish lozim. Masalan, Yu.A.Zadneprovskiyning etnografik ma‘lumotlar bo‘yicha qilingan hisobicha, Dalvarzinadagi mahobatli mudofaa inshootlari tizimining qurilishi 1-3 yil, ko‘pi bilan 5 yilda bitkazilgan. Ya‘ni har kuni qurilishda 100 kishi qatnashib, har bir ishchi o‘rtacha 1 kub. metr yer-qazuv va boshqa

ishlarni amalga oshirsa, inshoot 150-270 kunda bitgan bo'lishi mumkin. Agarda ishchi soni 100 tadan kam bo'lsa yoki ish unumi past bo'lsa, unda devor qurilishi cho'zilgan bo'lishi mumkin. Paleoekonomik izlanishlarga ko'ra, Dalvarzin aholisi 1800-2000 kishiga borgan, mehnatga yaroqlisi undan ham kam bo'lgan. Demak, devorlar qurilishida yon-atrofdagi aholi ham qatnashgani haqiqatga yaqindir. Devorlar qurilishining tashkil etilishi Chust madaniyati davri jamiyatidagi o'zgarishlar jarayonidan dalolat beradi.

Xulosa. Albatta, ilk davlatchilik ildizlarini o'rganishda dastlabki shaharlarning ahamiyati kattadir. Aynan ilk shaharlar zamirida davlatchilikning dastlabki shakllarining kurtaklari paydo bo'ladi. Ya'ni Farg'ona vodiysida, yuqorida ta'kid etilganidek, shaharlarning arxeologik jihatdan qayd etilgani, ilk irrigatsiya inshootlarining mavjudligi va hunarmandchilikning rivoj topgani qadimgi jamiyatdagi o'zgarishlardan darak beruvchi belgilardir. Bu jarayonlar, ilk davlatchilik shakllarining (belgilarining) paydo bo'la boshlanganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Анорбоев А. “Ўзбекистонда илк давлатчилик ва унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи бир муаммолар” О'zbekiston tarixi. – Тошкент: 2004. – № 4. – Б.10.
2. Қудратов С. “Ўзбекистон ҳудудида илк давлатлар пайдо бўлишининг баъзи масалалари” Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: 1999. – № 2. – Б. 10-11.
3. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. “Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар”. – Тошкент: “Адолат”, 2001. – Б. 23-30.
4. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. “Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи”. – Тошкент: “Академия”, 2006. – Б. 34-35.
5. Ширинов Т. “Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии: Автореф. дисс... докт. истор. наук”. – М: Институт археологии РАН, 1993. – С. 12-13.
6. Шайдуллаев Ш. “Илк давлатларнинг археологик белгилари” О'zbekiston tarixi. – Тошкент: 2002. – № 3. – Б.5.
7. Матбобоев Б. “Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари” О'zbekiston tarixi. – Тошкент: 2002. – №1. – Б.3-6.
8. Исамиддинов М.Х. “Генезис городской культуры Самаркандского Согда”.: Автореф. дисс. ... доктор. истор. наук. – Самарканд: Институт археологии АН РУз, 2000. – 42 с.